




# SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI



*(2022- yil yanvar-may oylari  
uchun dastlabki ma'lumot)*

Sirdaryo iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2022- yilning yanvar-may oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **360,4** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2021- yilga nisbatan **67,6** mln. AQSh dollariga yoki **23,1 %** ga ko'paydi.




## TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar-may, ming. AQSh dollar)

	2021-yil	2022-yil	O'sish surʼati, % da	jamiga nisbatan, % da
<b>Tashqi savdo aylanmasi</b>	<b>292 768,7</b>	<b>360 389,3</b>	<b>123,1 %</b>	x
<b>Eksport</b>	<b>94 203,3</b>	<b>118 642,3</b>	<b>125,9 %</b>	<b>100,0</b>
tovarlar	93 724,5	117 623,7	125,5	99,1
xizmatlar	478,8	1 018,6	183,6	0,9
<b>Import</b>	<b>198 565,4</b>	<b>241 747,0</b>	<b>121,7 %</b>	<b>100,0</b>
tovarlar	198 565,4	241 747,0	121,7 %	100,0
xizmatlar	00	0,0	0,0	0,0
<b>Saldo</b>	<b>-104 362,1</b>	<b>-123 104,7</b>	x	x

Ma'lumot uchun: Sirdaryo viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinnlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinnlarda – XSST) ishlataladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'tasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSAda eksport hajmi **118,6** mln. AQSh dollariga (**25,9** % ga ko'paydi) va import hajmi **241,7** mln. AQSh dollariga (**21,7** ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida – **123,1** mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

## SIRDARYO VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR (2022- yil yanvar-may, ulushi, % da.)





## SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI



Sirdaryo viloyati tashqi savdo aylanmasi yanvar-aprel oylarida **360,4** mln. AQSh dollari qiymatida qayd etilib, o'tgan yilning shu oyiga nisbatan **67,6** mln. AQSh dollariga ko'paydi.

Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzlusiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning ornini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSAda Afg'oniston, Tojikiston, va Qozog'iston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoxda. Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSAda eng yuqori ulush Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi va Italiya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



## 10 TA YIRIK HAMKOR-DAVLATLAR ICHIDA TO'RTTA FAOL TASHQI SAVDO BALANSI KUZATILGAN DAVLATLAR (2022- yil yanvar-may)



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 10 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan to'rtta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan,

Rossiya Federatsiyasi (**38,0** mln. AQSh dollar), Qozog'iston (**103,9** mln. AQSh dollar), Xitoy Xalq Respublikasi (**55,2** mln. AQSh dollar), va Afg'oniston (**40,1** mln. AQSh dollar) shular jumlasidandir. Qolgan 6 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

Sirdaryo viloyati jahoning **64** ga yaqin mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA da salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasi (**10,8** %), Qozog'iston (**29,5** %), Xitoy Xalq Respublikasi (**15,6** %), Afg'oniston (**11,4** %), Italiya (**12,5** %), Tajikiston (**5,4** %) va Turkiya (**4,4** %) qayd etilgan.

### SIRDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-may, mln. AQSh dollar)



Davlatlar	2020- y.	2021- y.	2022- y.
<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	<b>53,3</b>	<b>77,0</b>	<b>38,0</b>
<i>Eksport</i>	9,7	17,8	21,1
<i>Import</i>	43,6	59,2	16,9
<b>Qozog'iston</b>	<b>53,8</b>	<b>66,8</b>	<b>103,9</b>
<i>Eksport</i>	7,4	7,2	9,6
<i>Import</i>	46,4	59,6	94,3
<b>Xitoy Xalq Respublikasi</b>	<b>33,7</b>	<b>50,5</b>	<b>55,2</b>
<i>Eksport</i>	7,3	18,2	26,9
<i>Import</i>	26,4	32,3	28,3

## SIRDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-may, mln. AQSh dollar)



Davlatlar	2020- y.	2021- y.	2022- y.
<b>Afg'oniston</b>	<b>15,5</b>	<b>36,2</b>	<b>40,1</b>
	<i>Eksport</i>	15,5	36,2
	<i>Import</i>	-	1,1
<b>Pokiston</b>	<b>0,7</b>	<b>4,1</b>	<b>2,6</b>
	<i>Eksport</i>	0,7	4,1
	<i>Import</i>	0,0	0,5
<b>Litva</b>	<b>1,8</b>	<b>1,1</b>	<b>0,7</b>
	<i>Eksport</i>	-	-
	<i>Import</i>	1,8	1,1
<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>1,8</b>	<b>2,3</b>	<b>3,9</b>
	<i>Eksport</i>	0,3	1,9
	<i>Import</i>	1,5	0,4
<b>Turkiya</b>	<b>6,0</b>	<b>10,6</b>	<b>15,5</b>
	<i>Eksport</i>	0,6	4,5
	<i>Import</i>	5,4	6,1
<b>Italiya</b>	<b>0,7</b>	<b>0,9</b>	<b>44,0</b>
	<i>Eksport</i>	-	-
	<i>Import</i>	0,7	0,9
<b>Germaniya</b>	<b>7,5</b>	<b>15,3</b>	<b>3,4</b>
	<i>Eksport</i>	-	-
	<i>Import</i>	7,5	15,3
<b>Tojikiston</b>	<b>4,9</b>	<b>1,2</b>	<b>18,9</b>
	<i>Eksport</i>	2,3	0,9
	<i>Import</i>	2,6	13,8



## SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-may 2022- yil)



	Ming. AQSh dollarri	O'sish sur'ati, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>360 389,3</b>	<b>123,1</b>
Boyovut	21 217,7	159,5
Guliston	9 616,4	124,2
Mirzaobod	14 423,3	147,1
Oqoltin	3 316,3	81,4
Sardoba	3 648,8	87,7
Sayxunobod	57 355,7	2,2m.
Sirdaryo	128 532,7	178,3
Xovos	8 683,4	84,0
Guliston sh.	35 174,8	109,8
Shirin sh.	507,8	1,0
Yangiyer sh.	76 104,7	125,2

**Eng yuqori hajm,**  
ming AQSh dollarri

**Sirdaryo t.– 128 532,7**

**Yangiyer sh. – 76 104,7**

**Sayxunobod t. – 57 355,7**

**Eng quyi hajm,**  
ming AQSh dollarri

**Sardoba t.– 3 648,8**

**Oqoltin t.– 3 316,3**

**Shirin sh. – 507,8**

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo tumani **35,7** % ulush bilan **128 532,7** ming AQSh dollarini tashkil etdi.




Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng quyi ulushni Shirin shahri **0,1** % ulush bilan **507,8** ming AQSh dollarini tashkil etdi.



Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2022-yilning yanvar-may oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **47,4 %** ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2021- yilga nisbatan ulushi **11,7 %**. ga kamaygan.

## SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-may mln AQSh dollari, ulushi, % da)



Boshqa xorijiy davlatlarning TSAsi 2022- yilning yanvar-may oylarida 2021- yil ulishiga nisbatan **35,6 %** ga ko'payib va jami TSAdagi ulushi **52,6 %** ni tashkil etdi.



## SIRDARYO VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2022- yil yanvar-may, ming AQSh dollar)




1992- yil 4- yanvarda O'zbekiston Respublikasi MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi) ga a'zo bo'ldi. Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2022- yil yanvar-may holatiga **170 866,8** ming. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **38 046,5** ming AQSh dollariga yetgan bolsa, import **132 820,3** ming AQSh dollar qiyamatida qayd etildi.

Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya Federatsiyasi (**22,1 %**), Qozog'iston (**60,8 %**), Qirg'iz Respublikasi (**2,3 %**), Turmaniston (**2,6 %**) va Tojikiston (**11,1 %**) davlatlari bilan qayd etildi.



## SIRDARYO VILOYATINING YEVROOSIYO IQTISODIY ITTIFOQIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-may, ming AQSh dollarari, ulushi, % da)



Jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi

40,6 %

Jami eksportdagi ulushi

26,8 %

Jami importdagi ulushi

47,4 %

2020-yil 11-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Yevroosiyoy iqtisodiy ittifoqida kuzatuvchi maqomini oldi. YOII bilan Sirdaryo viloyatining tashqi savdo aylanmasi **146 400,2** ming AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi **31 813,4** ming AQSh dollarari, import hajmi esa **114 586,8** ming AQSh dollariga yetdi.




## SIRDARYO VILOYATI EKSPORTI (2022- yil yanvar-may)

**EXPORT**

Joriy yilning yanvar-may oylarida viloyatning eksportyori soni **124** tani tashkil etib, ular tomonidan **118 642,3** ming AQSh dollari qiymatidagi (2021- yilning mos davriga nisbatan **25,9 %** ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

### XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2022- yil yanvar-may, ulushi, % da)



Eksport tarkibida tovarlar ulushi **100,0 %** ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (**37,4 %**), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**41,6 %**) va kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xhash mahsulotlar (**4,3 %**) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

## SIRDARYO VILOYATI XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (yanvar-may, oylari yillar kesimida)



XSST tarkibi	Ming AQSh dollarari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2021- y	2022- y	2021 -y	2022- y	2021- y	2022- y
Jami eksport	94 004,4	118 299,4	141,4	125,8	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	47 013,8	49 171,3	137,1	104,6	50,0	41,6
Ichimliklar va tamaki	0,0	16,9	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	7 639,9	6 079,0	72,3	79,6	8,1	5,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xhash materiallar	0,0	6,9	0,0	0,0	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	751,9	0,0	0,0	0,0	0,8
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xhash mahsulotlar	1 587,9	5 030,1	48,1	3,2m.	1,7	4,2
Sanoat tovarlari	27 017,5	44 239,1	2,8m.	163,7	28,7	37,3
Mashinalar va transport asbob-uskulalari	1 804,1	2 905,1	3,0m.	161,0	1,9	2,5
Turli hil tayyor buyumlar	8 558,3	9 423,3	2,3m.	110,1	9,1	8,0
Xizmatlar	382,9	675,8	11,8	176,5	0,5	0,2



Sirdaryo viloyati eksporti yanvar-may oylarida **118 642,3** ming AQSh dollari qiymatida qayd etilib, o'tgan yilning shu oyiga nisbatan **24 439,0** ming AQSh dollariga ko'paydi.

### XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2022- yil yanvar-may)



XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollarri	2021- yilga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Sabzavotlar va mevalar	9 922,4	86,1
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	38 291,3	111,9
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	325,8	0,0
Shakar,shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	105,7	3,6m.
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	0,2	0,0
Tamaki va tamaki mahsulotlari	16,7	0,0
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	2 671,5	39,3
Tabiiy kauchuk (sun'iy kauchuk va regeneratsiya qilingan rezina xam)	99,6	0,0
Moy olinadigan urug'lар va moy olinadigan mevalar	324,5	49,6
Qog'oz massasi va makulatura	2 727,4	28,8m.
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Tabiiy yoki sun'iy gaz	0,0	0,0
Elektr toki	0,0	0,0
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	6,9	0,0

## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2022- yil yanvar-may)






XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2021- yilga nisbatan, % da
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	751,9	0,0
<b>Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xhash mahsulotlar</b>		
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	2 237,3	165,6
Birlamchi shakilda bo'lmagan plastmassalar	142,2	111,5
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va boyo'qlar	80,6	0,0
Tibbiyot va farmasevtika mahsulotlari	2 449,4	22,9m.
<b>Sanoat tovarlari</b>		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xhash mahsulotlar	31 445,7	176,8
Teri, boshqa joyda tasniflanmagan teridan tayyorlangan buyumlar , muyna	7 868,8	122,8
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	4 204,8	2,1m.
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalari</b>		
Aniq sohalar uchun mahsus mo'ljallangan mashinalar	176,2	132,4
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblar, boshqa joyda tasniflanmagan, va ularning elektr qismlari (boshqa joyda tasniflanmagan elektr maishiy asboblarning elektr bo'lmagan qismlari ham)	165,4	0,0
Sanoat uchun mahsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	2 461,7	150,0
<b>Turli hil tayyor buyumlar</b>		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	8 455,9	104,2
Har hil tayyor buyumlar	479,8	108,7



## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-may, mln AQSh dollarri, ulushi, % da)



So'nggi yiliarda MDH mamlakatlariiga eksport hajmi kamaydi va ularning jami eksportdagi ulushi 2021-yilning yanvar-mayida **30,8 %** ni 2022-yilning yanvar-mayida **32,1 %** ga kamaydi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi **67,9 %** ni tashkil etdi.



**VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR-NING ULUSHI  
(2022-yil yanvar-may, % da)**

2022-yilning yanvar-may oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Afg'oniston (eksport umumiyoj hajmining **33,0 %**), Rossiya Federatsiyasi (**17,8 %**), Xitoy Xalq Respublikasi (**22,7 %**), Pokiston (**1,8 %**), Qozog'iston (**8,1 %**), Turkiya (**7,8 %**), Tajikiston (**4,3 %**) va boshqa davlatlarning eksportdagi ulushi **4,5 foizni** tashkil etmoqda.



## SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORT HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-may, yillar kesimida)



Davlatlar	Ming AQSh dollarri		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2021- y	2022- y	2021- y	2022- y	2021- y	2022- y
Afg'oniston	36 173,4	39 063,7	2,3m.	108,0	3	6
Rossiya Federatsiyasi	17 801,7	21 051,3	182,4	118,3	5	5
Xitoy Xalq Respublikasi	18 151,9	26 910,5	2,5m.	148,3	4	3
Qozog'iston	7 157,6	9 572,6	96,5	133,7	6	4
Turkiya	4 505,8	9 226,3	7,6m.	2,1m.	1	2
Tojikistan	955,2	5 076,6	41,0	5,3m.	7	1
Qirg'iz Respublikasi	1 923,1	965,5	5,5m.	50,2	2	7

## SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2022- yil yanvar-may)



	Ming. AQSh dollar	O'sish sur'ati, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>118 642,3</b>	<b>125,9</b>
Boyovut	8 839,5	108,7
Guliston	8 605,1	128,3
Mirzaobod	11 471,2	203,5
Oqoltin	1 766,9	77,4
Sardoba	1 209,1	93,6
Sayxunobod	13 102,3	148,9
Sirdaryo	29 529,8	143,0
Xovos	5 246,2	88,3
Guliston sh.	9 782,7	95,2
Shirin sh.	0,0	0,0
<b>Yangiyer sh.</b>	<b>27 282,8</b>	<b>114,7</b>

**Eng yuqori hajm,**  
ming AQSh dollar

**Yangiyer sh. – 27 282,8**

**Sirdaryo t.– 29 529,8**

**Sayxunobod t.– 13 102,3**

**Eng quyi hajm,**  
ming AQSh dollar

**Oqoltin t.– 1 766,9**

**Sardoba t.– 1 209,1**

**Shirin sh. – 0,0**

Viloyatning eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo tumani **24,9** % ulush bilan **29 529,8** ming AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyatda eksport tarkibida Shirin shahri **0,0** % ulushga ega bo'lib, eksport amalga oshirmagan.

## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Sirdaryodagi meva-sabzavot sektori mamlakat va hududlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim segment hisoblanadi. Shuning uchun, bu sohada meva va sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish uchun barcha choralar ko'rilmoxda, bu esa o'z natijalarini bermoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **9 922,3** ming AQSh dollari qiymatli **24 576,0** tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2021- yilning mos davriga nisbatan **1 606,7** ming AQSh dollarida kamaygani kuzatilib, **13,9 %** ga kamaydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, **8 105,7** ming AQSh dollariga teng **21 209,0** tonna sabzavot, shuningdek, **1 816,6** ming AQSh dollari qiymatidagi **3 367,0** tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

### MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2022- yil yanvar-may)



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston hamda Pokiston davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi **65,5 %** ni tashkil etdi.

### MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2022- yil yanvar-may)

Davlatlar	Tonna	ming AQSh dollarri	ulushi, % da *
Afg'oniston	249,1	174,4	1,7
Pokiston	298,9	1 034,2	10,4
Rossiya Federatsiyasi	929,1	1 599,6	16,1
Qozog'iston	19 704,6	3 865,9	39,0
Xitoy Xalq Respublikasi	920,0	844,7	8,5
Eron (Islom Respublikasi)	727,4	704,4	7,1

\* *qiymat ifodasidan*

Meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qozog'iston to'g'ri keladi (meva va sabzavotlar eksporti umumiylaj hajmining **39,0 %** ga tashkil etdi.)




## SIRDARYO VILOYATINING IMPORTI (2022- yil yanvar-may)

2022- yilning yanvar-may oylarida import hajmi **241 747,0** ming AQSh dollarini va 2021- yilga nisbatan **121,7 %** ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**32,7 %**), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xhash mahsulotlar (**20,6 %**) hamda mashinalar va transport asbob-uskunalar (**31,1 %**) hisobiga to'g'ri keldi.

### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2022- yil yanvar-may ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2022- yilning yanvar-may oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **43 181,6** ming AQSh dollariga ko'payib va **241 747,0** ming AQSh dollarini tashkil etdi.

## SIRDARYO VILOYATI XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (yanvar-may, oylari yillar kesimida)



XSST tarkibi	Ming AQSh dollarri		O'sish sur'ati, % da		Umumiyligi hajmiga nis- batan, % da	
	2021 - y	2022 -y	2021-y	2022-y	2021 -y	2022 -y
Jami import	198 565,4	241 747,0	130,3	121,7	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	55 729,1	78 349,0	170,6	140,1	28,1	32,4
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	5 672,6	23 278,9	79,5	4,1m.	2,9	9,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	39 946,3	4 178,1	10,7m.	10,5	20,1	1,7
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	2 324,5	262,5	93,7	11,3	1,2	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	20 085,5	49 210,2	52,4	2,4m.	10,1	20,4
Sanoat tovarlari	11 505,3	10 539,0	107,8	91,6	5,8	4,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalarini	59 757,1	73 505,5	99,5	123,0	30,1	30,4
Turli hil tayyor buyumlar	3 545,1	2 423,8	79,1	68,4	1,8	1,0
Xizmatlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0

## SIRDARYO VILOYATI IMPORTI



Sirdaryo viloyati importi yanvar-may oylarida **241 747,0** ming AQSh dollari qiymatida qayd etilib, o'tgan yilga nisbatan **43 181,6** ming AQSh dollariga ko'paydi.

### XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2022- yil yanvar-may)



XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2021-yilga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	67 886,5	148,2
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	168,7	92,4
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	2947,8	2,1m.
Tirik hayvonlar , 03 bo'limga kiritilgan hayvonlardan tashqari	2857,1	57,5
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Tamaki va tamaki mahsulotlari	0,0	0,0
Ichimliklar	0,0	0,0
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
Probka va yog'och-taxtalar	1878,3	104,9
56 bo'limga kiritilmagandan tashqari o'g'itlar uchu xom-ashyolar	671,8	2,8m.
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	2517,5	83,7
To'qimachilik tolalari va ularning chqindilari	17017,8	2331,2m.
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	393,3	1,1
Ko'mir, koks va briketlar	3784,8	103,7





## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2022-yil yanvar-may)



XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2021-yilga nisbatan, % da
<b>Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Tibbiyot va farmasevtika mahsulotlari	1280,4	176,9
Birlamchi shakldagi plastmassalar	18789,9	6,1m.
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	3048,3	50,0
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va buyoklar	5749,8	116,2
O'g'itlar (272 guruxga kiritilganlardan tashkari)	14897,0	306,5m.
Noorganik kimyo moddalari	3015,8	101,7
<b>Sanoat tovarlari</b>		
Cho'yan va po'lat	1699,1	130,1
Metalldan tayyorlangan buyumlar	1094,8	60,8
Ruda bo'limgan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	1510,5	118,5
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashkari)	4900,0	86,3
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalari</b>		
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	61 365,1	163,1
Sanoat uchun maxsus bo'limgan mashinalar va ularning detallari	7 299,4	98,3
Avtomobilarning ehtiyyot qismlari	1208,1	53,4
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblar, boshka joyda tasniflanmagan, va ularning elektr qismlari (boshka joyda tasniflanmagan elektr maishiy asboblarning elektr bo'limgan kismlari xam)	2329,4	60,0
<b>Turli hil tayyor buyumlar</b>		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	697,6	46,8
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	410,9	33,3
Har hil tayyor buyumlar	720,6	162,9
<b>Xayvonlar va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
O'simlik moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraktsiyalangan	262,5	11,3

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (2022- yil yanvar-mayida, mln AQSh dollar'i, ulushi, % da)




2022- yilning yanvar-may oylari yakuni bo'yicha Sirdaryo viloyati tomonidan **43** davlatdan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.

Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Italiya, Qozog'iston, Koreya Respublikasi, va Tajikiston) jami importning **88,6** % ulushini tashkil qildi, bu **207 737,9** ming AQSh dollarini tashkil etdi.



**VILOYATNING  
IMPORTIDA ASOSIY  
HAMKOR  
DAVLATLARNING  
ULUSHI (2022- yil  
yanvar-may, % da)**





## SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN IMPORT HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-may, yillar kesimida)



Davlatlar	Ming AQSh dollarri		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2021- y	2022- y	2021- y	2022- y	2021- y	2022- y
Rossiya Federatsiyasi	59 250,3	16 935,5	135,7	28,6	1	7
Qozog'iston	59 560,7	94 310,7	128,4	158,3	3	4
Xitoy Xalq Respublikasi	32 303,7	28 260,6	122,5	87,5	4	6
Italiya	903,2	43 960,5	132,1	48,7m.	2	2
Koreya Respublikasi	948,7	6 890,1	26,5	7,3m.	6	3
Turkiya	6 109,1	6 310,9	112,6	103,3	5	5
Tojikiston	278,3	13 872,0	10,7	49,8m.	7	1

## SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2022- yil yanvar-may)



	Ming AQSh dollarri	O'sish sur'ati, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>241 747,0</b>	<b>121,7</b>
Boyovut	12 379,2	2,4m.
Guliston	1 011,3	97,7
Mirzaobod	2 952,1	70,9
Oqoltin	1 549,4	86,5
Sardoba	2 439,7	85,1
Sayxunobod	44 253,4	2,2m.
Sirdaryo	99 002,9	192,5
Xovos	3 437,2	78,2
Guliston sh.	25 392,1	116,7
Shirin sh.	507,8	1,0
Yangiyer sh.	48 821,9	132,0

**Eng yuqori hajm,  
ming AQSh dollarri**

**Sayxunobod t.– 44 253,4**

**Sirdaryo t.– 99 002,9**

**Yangiyer sh. – 48 821,9**

**Eng quyi hajm,  
ming AQSh dollarri**

**Shirin sh. – 507,8**

**Oqoltin t.– 1 549,4**

**Guliston t. – 1 011,3**

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo **40,9** % ulush bilan **99 002,9** ming AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyat importi tarkibida eng quyi ulushni Shirin shahri **0,2** % ulush bilan **507,8** ming AQSh dollarini tashkil etdi.

## MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI



2022-yil yanvar-may oylarida import tarkibida mashinalar va transport-asbob uskunalar hajmi **73 505,5** ming AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **23,0** foizga ko'paydi va importning umumiyligi hajmidagi ulushi **30,4 %** ga yetdi.

Import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilayotgan mashinalar va transport asbob-uskunalar asosan qaysi davlatlardan viloyatimizga olib kirilayotganini quyidagi ma'lumotdan ko'rish mumkin.

### MASHINA VA ASBOB-USKUNALAR IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2022- yil yanvar-may)



<b>Italiya</b> 40 131,3 ming. AQSh dollari
<b>Xitoy Xalq Respublikasi</b> 19 123,5 ming. AQSh dollari
<b>Rossiya Federatsiyasi</b> 2 213,5 ming. AQSh dollari
<b>Turkiya</b> 4 092,0 ming. AQSh dollari
<b>Germaniya</b> 2 219,4 ming. AQSh dollari

Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar (**163,1%**) importi ko'payishi bevosita ta'sir qilgan.



## SANOAT TOVARLARI IMPORTI



2022- yil yanvar-may oylarida import tarkibida sanoat tovarlari hajmi **10 539,0** ming AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **8,4** foizga kamaydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **4,4 %** ga yetdi.

### SANOAT MAHULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2022- yil yanvar-may)



#### Rossiya Federatsiyasi

54 78,6 ming. AQSh dollari  
ulushi – 52,0 %



#### Xitoy Xalq Respublikasi

2 795,3 ming. AQSh dollari  
ulushi – 26,5 %



#### Qozog'iston

1 040,9 ming. AQSh dollari  
ulushi – 9,9 %



#### Turkiya

523,5 ming. AQSh dollari  
ulushi – 5,0 %



Sanoat tovarlari importi asosan probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (**4 900,0** ming AQSh dollari), cho'yan va po'lat (**1 699,1** ming AQSh dollari), va ruda bo'ilman qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan (**1 510,5** ming AQSh dollari) va boshqalardan tashkil topgan.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi**  
**Tel.: (67) 236 86 34**



**26**